





**O'zbekiston Respublikasi
ADLIYA VAZIRLIGI**


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING MAZMUN-MOHIIYATI



O'zbekiston davlatining huquqiy maqomi bo'yicha belgilangan normalar



**Konstitutsiyada O'ZBEKISTON SUVEREN,
DEMOKRATIK, HUQUQIY VA IJTIMOIIY
DAVLAT ekanligi o'zgarmas qoida sifatida
mustahkamlandi**




Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash – davlatning oliy majburiyati



INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARI qonunlar, davlat organlari va ular mansabdor shaxslari faoliyatining mazmun-mohiyatini belgilaydi

(20-modda)




“INSON-JAMIYAT-DAVLAT”



Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar INSON FOYDASIGA talqin etiladi.

(20-modda)




“INSON-JAMIYAT-DAVLAT”



Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi, har bir shaxs yozishmalari, telefon orqali soʻzlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqiga ega ekanligi, ushbu huquqning cheklanishi va turar joyda tintuv oʻtkazishga faqat sud qaroriga asosan yoʻl qoʻyilishi haqida jinoyat protsessida shaxs daxlsizligi kafolatlari belgilandi.

(31-modda)




Ijtimoiy adolat va birdamlik tamoyiliga qaratilgan ijtimoiy davlat belgilari o'z ifodasini topdi



DAVLAT fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi.

(43-modda)



Ijtimoiy adolat va birdamlik tamoyiliga qaratilgan ijtimoiy davlat belgilari o'z ifodasini topdi




HAR BIR INSON UY-JOYLI BO'LISH HUQUQIGA EGA.

Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas.

Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'рни qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta'minlanadi.

(47-modda)



Ta'lim olish huquqi va o'qituvchilar – Konstitutsiya himoyasida




HAR KIM TA'LIM OLISH HUQUQIGA EGA.

Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi.

Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli.



Ta'lim olish huquqi va o'qituvchilar – Konstitutsiya himoyasida




Oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik berilishi, nodavlat ta'lim tashkilotlari qo'llab-quvvatlanishi to'g'risidagi qoidalar kiritildi.

(51-modda)

O'QITUVCHILAR SHA'NI VA QADR-QIMMATINI HIMOYA QILISH, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish borasidagi normaga alohida to'xtalib o'tilsak.

Ushbu norma yurtimizda o'tgan olti yil ichida o'qituvchining qadrini ko'tarish, uning nufuzi va mavqeini yuksaltirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni mustahkamlashi va o'qituvchilarning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi va obro'sini yanada oshirishga xizmat qiladi.

(52-modda)




Majburiy mehnat taqiqlanishining konstitutsiyaviy kafolatlari belgilandi



Bolalarning barkamol rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladigan har qanday **BOLALAR MEHNATI TAQIQLANADI.**

(44-modda)




Bozor mexanizmlari yanada rivojlantiriladi va xususiy mulk daxlsizligi kafolatlanadi



Milliy iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirish, mamlakatda investitsiyaviy muhitni yaxshilash hamda mulk himoyasini yanada kuchaytirish sohalariga ham alohida e'tibor qaratilib, davlat tomonidan bozor munosabatlarini rivojlantirish, **HALOL RAQOBAT UCHUN SHART-SHAROIT YARATISH**, qulay ishbiarmonlik va investitsiya muhitini ta'minlash, **XUSUSIY MULK DAXLSIZLIGINI HIMOYA QILISHNI TA'MINLASH** mexanizmlari belgilandi.

(65-modda)



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yoshlar huquqlariga oid eng muhim 5 ta kafolat:



Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi.


Davlat yoshlarning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat yoshlarning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat va jamiyat yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

(78-79-moddalar)



Fuqarolarning ekologik huquqlarini himoya qilishga oid normalar mustahkamlandi




Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega.

Davlat atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi.

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.



Fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalariga oid normalar yana-da rivojlantirildi



DAVLAT OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI FAOLIYATINING ERKINLIGINI KAFOLATLAYDI.

Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir.

Davlat ommaviy axborot vositalarining axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!